

## ABDULLA AVLONIY DRAMALARIDA IJTIMOIY HAYOT IN'IKOSI

Jo'rayev Oybek Sherali o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi  
3-bosqich talabasi

### PERCEPTION OF SOCIAL LIFE IN ABDULLA AVLANI'S DRAMAS

Jorayev Oybek Sherali oglı

TDPU named after Nizami, Uzbek language and  
literature department 3rd grade student

#### **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada jadid adabiyotining vakillari tomonidan yaratilgan dramalar va bu dramalar ichida Abdulla Avloniyning dramalaridagi ijtimoiy hayot haqida so'z yuritiladi.

#### **Abstract:**

This article talks about the dramas created by the representatives of modern literature and the social life in the dramas of Abdulla Avlani among these dramas.

**Kalit so'zlar:** prezident, jadidlar, Yevropa, ta'lif, teatr, g'oya, drama, adabiyot, tarjima, Ozarboyjon.

**Keywords:** president, modern, Europe, education, theater, idea, drama, literature, translation, Azerbaijan.

Jadid adabiyotining yirik vakili hisoblangan Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniyilar tomonidan bir qancha dramalar yaratilgan bo'lib, ularning barchasi jadidchilik g'oyalari bilan sug'orilgan va ularning hammasida XX asr hayoti, xalqning ahvoli ochiqchasiga tasvirlangan. Bu dramalarni yozishdan maqsad, o'sha davrda aholining kattagina qismi savodsiz bo'lgan bir paytda jadidlar o'z g'oyalarini xalqqa singdirish uchun teatrni tanladilar.

Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo'lgan teatr san'ati xususida so'z borar ekan, buyuk ma'rifatparvar olim Mahmudxo'ja Behbudiyning "Teatr - bu ibratxonadir", - deb aytgan fikrini eslash o'rinnlidir" [1;89-bet].

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan "Padarkush", Hoji Muinning "Eski maktab va yangi maktab", "Mazluma xotun", "Ko'knori", Hoji Muin va Nusratulla Qudratullayev hamkorligida yozilgan "To'y", Abdulla Badriyning "Juvonmarg", "Ahmoq", Abdulla Avloniyining "Pinak", "Biz va siz", "Ikki sevgi", "Potugaliya inqilobi", "Advokatlik osonmi?", Hamza Hakimzoda Niyoziy tomonidan "Tuxmatchilar jazosi",

“Ishchilar hayotidan”, “Qizil qon ichida yosh go‘daklar”, “Mahbus to‘raning holi”, “Pastki sho‘rolar saylovi munosabati ila yozilg‘an cho‘pcharlar”, “Pastki sho‘rolar tuzmasida saylovg‘a kirolmagan bir eshon o‘pkasiga javoban”, “Boy ila xizmatchi”, “Muxtoriyat yoki avtonomiya”, “Kim to‘g‘ri”, “Loshmon fojialari”, “Farg‘ona fojialari”, “Burungi saylovlar”, “Qozining sirlari”, “El quzg‘unlari”, “Jahon sarmoyasining oxirgi kunlari”, “Burungi qozilar yohud, Maysaraning ishi”, “Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi”, shuningdek, matni saqlanmagan “Ilm hidoyati”, “Normuhammad domlaning kufr xatosi” kabi dramalar yaratilgan.

“Teatr jadidlar nazdida, avvalo “ulug‘lar maktabi”, “ibratxona” bo‘lib, xuddi maktab va matbuot kabi ma’rifat, ilm olmoq g‘oyasini targ‘ib etishi ko‘zda tutilgan edi” [2;119-bet]. Bu dramalarda o‘sha davrda Turkiston mintaqasidagi ijtimoiy ahvol yorqin tasvirlangan bo‘lib, davriy muammolar aks etgan. Misol uchun, Abdulla Avloniyning dramalari bunga yorqin misoldir.

“Advokatlik osonmi?” asarida Yevropada huquqshunoslik bo‘yicha o‘qigan, yangi fikrli yosh bir musulmon yigit to‘g‘risida gap ketadi. Asardagi ushbu obraz Abdulla Avloniyning idealidagi obraz hisoblanadi. Yigirma to‘rt yoshda bo‘lgan, aholining qilgan ishlaridan, o‘z haq - huquqini talab qila olmaslididan, o‘zлari tuzatib bo‘lmash xatoga yo‘l qo‘ysalarda, yordam berishlarini talab qilishidan aziyat chekuvchi obrazdir. Ushbu asarda Turkistondagi ayanchli voqealar tasvirlangan. O‘z haq - huquqlarini bilmagan xalq huquqshunos yigitga barcha ishlarini hal qilib berishini so‘rashi aqlga sig‘maydigan hodisa va bu ishlar orqali o‘sha davr jamiyatidagi aholining dunyoqarashi va jamiyatning ahvolini ko‘rish mumkin.

Avloniyning “Biz va Siz”da bosh qahramon ziyoli o‘zbek yigit, Yevropadan qaytib kelgach, eskilikcha turmushga ko‘nika olmayotgan yigit. Ushbu dramada ayanchli muammolar orqali syujet liniyasidagi voqealar fojeaga aylanadi, bosh qahramon yigit va qiz taqdiri ayanchli yakunlanadi. “Biz va Siz” dramasida oiladagi, butun jamiyatdagi jaxolat, ilmsizlik oshkora fosh etiladi. O‘n yil davomida Yevropada taxsil olib qaytgan Kamol ham ruhiy va jismoniy, ham ma’naviy jihatdan barkamol yigit. Taxisili davomida yurtida kechayotgan o‘zgarishlardan xursand bo‘lgan, uyga qaytgach, tamoman aks manzarani ko‘rgan va qayg‘uga botgan obraz. “Emdi nima qilmoq kerak?” degan savol uni qiy Naydi va “...men o‘zimga lozim bildim, jazm qildim, o‘z umrini hazon qilgani o‘sha davr ijtimoiy hayotining ayanchli voqealaridandir.

Abdulla Avloniy boshqa xalqlar adabiyotining yirik vakillari asarlarini ham tarjima qildi, bu xizmatlari bilan o‘zbek adabiyotini yanada boyitdi.

Avloniy tarjimashunoslikda ham o‘zini sinab ko‘rdi. Jumladan, “Badbaxt kelin”, “Xo‘r-xo‘r”, “Jaholat”, “O‘liklar”, “Joy ijaraga olgan kishi”, “Man o‘lmisham”, “Layli va Majnun”, “Asli va Karam” kabi sahna uchun mo‘ljallangan dramatik turga mansub bo‘lgan asarlarni **ozarbayjon** tilidan o‘zbek tiliga o‘giradi va ularni sahnada o‘ynash uchun tayyorlaydi. Bu asarlarning ko‘pchiligi Ozarbayjon klassik adabiyotining nodir tuhfalari hisoblanib, insonlarni ezgu niyat va yaxshilik qilish, sevgi va muhabbat kabi oliyjanob tuyg‘ularni tarannum etadi

hamda jamiyatdagi illatlar, kamchilik va nuqsonlarni, ayniqsa, ma'naviy tuban kimsalarni qattiq qoralaydi [3].

Jadidlar ko'pgina dramalarni yozish bilan birgalikda ularning nazariy asoslarini ham tavsiflab beradilar. Bu yo'lda qator maqola hamda ilmiy asarlar yaratadilar. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy "Teatr nadur?", Abdulla Avloniy "Teatr xususida munozara", Tavallo "Teatr haqinda", "Teatrga maxsus" kabi qator maqola va asarlar e'lon qildilar.

Jadid adabiyoti namoyandalarining hayoti va ijodi, ularning asarlari, jumladan, dramaturgiyasi haqida adabiyotshunos olimlardan G'.Karimov, O.Sharafiddinov, B.Qosimov, N.Karimov, Sh.Rizayev, S.Ahmad, Sh.Turdiyev, B.Do'stqorayev va boshqa yirik adabiyotshunos olimlar bilan birgalikda bir qator yosh tadqiqotchilar tomonidan ham salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Xulosa qilib aytganda, jadidlar tomonidan yozilgan ushbu dramalarda ma'naviy pastlik va jaholat, ya'ni o'sha davrdagi ijtimoiy ahvol ochiq - oydin tasvirlangan. Abdulla Avloniyning bir qator asarlarida inqilob haqida yozilganligining sababi, aholi shuuriga inqilobni singdirish, ya'ni xalqni inqilobga tayyorlashdan iborat edi.

### **Foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdujamilovna, Kalandarova Dilafruz. "Attitude to uzbek folklore in the research of Karl reichl." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.5 (2021): 500-503.
2. Dilafruz, Kalandarova. "Issues Of Uzbek Folklore And Its Research In Germany." Journal of Positive School Psychology 6.9 (2022): 4395-4398.
3. Reichl, Karl. Routledge Revivals: Turkic Oral Epic Poetry (1992): Traditions, Forms, Poetic Structure. Routledge, 2018.
4. Каландарова, Д. А., and З. Ф. Каршибоева. "ХАРАКТЕР ТВОРЦА В ПОЭЗИИ БАБУРА." Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность. Сборник статей и тезисов докладов Международной научно-практической конференции 28 февраля 2020 г.. Litres, 2022.
5. Kalandarova Dilafruz, Dilafruz. "Research of the Sherabad Epic School Abroad." International Journal on Integrated Education 5.10 (2022): 149-151.
6. Alimova, Z. K. "Organization of Non-State Preschool Educational Organizations and Licensing of their Activities." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.1 (2022): 268-273.
7. Mansurovna, Rasulova Iroda, and Alimova Zulfiya Karimovna. "The formation of the psyche of preschool children through physical education and sports." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.12 (2019).
8. Karimovna, Alimova Zulfiya. "Reforms in the Field of Preschool Education and Modern Pedagogical Methods of Teaching." INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION 1.5 (2022): 105-110.

9.Karimovna, Alimova Zulfiya. "Education of children through national mobile games in preschool educational institutions." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.5 (2021): 486-490.

10.Алимова, Зулфия Каримовна, and Диляфруз Абдужамиловна Каландарова. "Воспитание детей в духе национальных традиций и ценностей в дошкольных образовательных учреждениях." ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. 2020.

11.Алимова, З. К., and И. М. Расурова. "ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНОСТИ ЛИЧНОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА." Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность. Сборник статей и тезисов докладов Международной научно-практической конференции 28 февраля 2020 г.. Litres, 2022.